

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>S.M.Zokirova</b>	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
<b>I.T.Xojaliyev</b>	
Tasvir nutq tipining modal aspekti.....	1319
<b>M.A.Usmanova</b>	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
<b>R.N.Umarova, O.U.Xolmatova</b>	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati .....	1328
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
<b>R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova</b>	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
<b>G.Z.Rozikova</b>	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar .....	1346
<b>N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova</b>	
Allegory as a research object of linguistics .....	1351
<b>E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili .....	1354
<b>U.I.Nosirova</b>	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi .....	1360
<b>Sh.R.Mo'ydinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
<b>Y.I.Karimov</b>	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini .....	1369
<b>G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova</b>	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili .....	1373
<b>D.M.Ismoilova</b>	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari .....	1378
<b>G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
<b>Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova</b>	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar .....	1388
<b>E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva</b>	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi .....	1392
<b>Sh.M.Iskandarova</b>	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar .....	1397
<b>X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova</b>	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi .....	1401
<b>Z.A.Akbarova</b>	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida .....	1406
<b>P.M.Axmadjonov</b>	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
<b>O.Q.Abbozov</b>	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
<b>I.T.Axmadjonov</b>	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish .....	1422
<b>A.Mamajonov, O.Q.Abbozov</b>	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 811.512.133

**РОЕТИК МАТНЛАРНИНГ ВИЗУАЛ-ГРАФИК ИФОДАСИ****ВИЗУАЛЬНО-ГРАФИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ****VISUAL-GRAPHIC EXPRESSION OF POETIC TEXTS****Nosirova Umidaxon Ikromovna**

Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada poetik matnlarda shakl va mazmun uyg'unligi, olamning konseptual va lisoniy manzarasining she'riy matnlardagi vizual-grafik ifodasi hamda muallifning boriq haqidagi tasavvurlarini turli grafik shaklda namoyon bo'lishi, she'riy matnning semantikasi uning vizual ifodasiga ham bog'liqligi masalalari pragmatikognitiv jihatdan yoritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается гармония формы и содержания в поэтических текстах, визуальное-графическое выражение когнитивного и языкового картина мира в поэтических текстах, а также проявление авторских представлений о существовании в различных графических формах, семантика поэтического текста зависит и от его визуального выражения, вопросы его существования объясняются с прагмакогнитивной точки зрения.*

**Abstract**

*This article examines the harmony of form and content in poetic texts, the visual-graphic expression of the cognitive and linguistic picture of the world in poetic texts, as well as the manifestation of the author's ideas about existence in various graphic forms, the semantics of a poetic text also depends on its visual expression, questions of its existence explained from a pragmacognitive point of view.*

**Kalit so'zlar:** poetik matn, lisoniy olam, shakl va mazmun uyg'unligi, konsept, vizual-grafik ifoda, poetik nigoh, lisoniy hodisa, kommunikativ maqsad, estetik-emotsionallik, kognitiv xususiyat, semantika, pragmatika.

**Ключевые слова:** поэтический текст, языковой мир, гармония формы и содержания, концепт, наглядно-графическое выражение, поэтический взгляд, языковой феномен, коммуникативная цель, эстетико-эмоциональность, когнитивный признак, семантика, прагматика.

**Key words:** poetic text, linguistic world, harmony of form and content, concept, visual-graphic expression, poetic gaze, linguistic phenomenon, communicative purpose, aesthetic-emotionality, cognitive feature, semantics, pragmatics.

**KIRISH**

She'riy matnning turli xil ifoda shakllari, ya'ni grafika matn mazmunini ochishga xizmat qiladigan o'ziga xos belgi hisoblanadi. Shuning uchun poetik matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilishda uning kompozitsiyasi uchun tanlangan grafik shakllar va leksik birliklarning ifoda usullarini ham hisobga olish lozim. Chunki she'riyatning shakliy ifodasida biz o'ylagandan ko'ra ko'proq yashirin ma'nolar mavjud. Bu haqida Yu.M.Lotman shunday deydi: "She'riyatda ifodalangan har qanday element semantik xarakterga ega bo'lib, qo'shimcha ma'noga ega bo'lishi mumkin"[6, 47]. She'riy matnlarda til elementlarining turli xil ko'rinishdagi grafik faollashuvi ta'sirchanlikni oshiradi, emotsionallikni kuchaytiradi va matn mazmunini yoritish uchun xizmat qiladi. Olimning fikricha, "har qanday poetik matnning qurilishi va tashqi ko'rinishi poetik bo'lmagan boshqa matnlardan jiddiy farqlanadi. Zero, muallif poetik matnning tashqi qurilishini nazorat qiladi, chunki badiiy ifodada poetik matn shakli ham muhim ahamiyatga ega" [7, 81].

Poetik matnlar ifodasida ikki xil shakl – an'anaviy shakl va individual grafik shakl borki, ularni bir-biridan farqlash lozim. An'anaviy shakllar barcha poetik asarlarning shakliy strukturasi belgilaydi. Har qanday nasriy matnning shakliy strukturasi gap (sodda, qo'shma va murakkab),

## TILSHUNOSLIK

supersintaktik butunliklar, abzas, bob, paragraflarga ajralsa, she'riy matnlar misra va band tizimi bilan xarakterlanadi.

Individual grafik shakl esa har bir muallifning "poetik matnda axborot uzatish" uchun tanlagan o'ziga xos individual shaklidir. Ijodkor biror bir voqelikni yoritarkan, mazmun ifodasi uchun an'anaviy shakldan qochgan holda, pragmapoetik vizual shaklni tanlaydi. Har qanday she'riy matnda shakl va mazmun uyg'unligi mujassam bo'lib, muallif borliqdagi voqea-hodisalarni ifodalashda turli xil shakllar, grafik ko'rinishlar, figurali tasvirlardan foydalanadi. Bunday she'larni yaratish muallifdan alohida bilim va mahoratni talab etadi. Har bir ijodkor olamni o'zgacha nigoh bilan ko'radi. Zebo Mirzo o'zining "Ishq" nomli she'riy to'plamida: "Dunyo shakllardan iborat, agar uni ko'ra bilsangiz" [4, 123], deb dunyoni anglash har nigohda turli tus olishini ta'kidlaydi. Bu o'rinda shoira "shakl" deganda, muallifning kognitiv bilimlari va tafakkur olamini nazarda tutgan bo'lib, muallif dunyoning turli shakldagi rangin tasvirini qanday ko'rsa, kitobxonga shunday taqdim etish uchun turli xil vizual-grafik shakllarni tanlaydi. Matn ifodasi uchun tanlangan grafik shakl kitobxonda estetik-emotsionallikni oshirib, uning tafakkur olami, idrok etish jarayoniga turtki beradi. Har qanday she'riy matn shakliy va mazmuniy uyg'unlikdagi butunlik bo'lib, unda ma'lum bir mazmun ifodalanadi. Unda ifodalangan belgilar tarkibini, ularning funksiyalari va qo'llash usullarini pragmakognitiv jihatdan o'rganish bugungi kun o'zbek tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Kognitiv shakl bilan grafik shakl uyg'unlashganda poetik matn mohiyati ochiladi. Til unsurlarining odatdagidan o'zga shaklda qullanilishi "umumodatlangan normadan og'ish" [17, 117] hisoblanib, ular matn mazmunini to'laqonli bo'lishiga va ifodaviylik kuchayishiga xizmat qiladi. Filologiya ilmidagi "shakl" va "mazmun" tushunchasi va ularning ahamiyati juda ko'p olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Masalan, jahon tilshunosligida Yu.M.Lotman, A.G.Stepanov, Yu.V.Kazarin, B.V.Tomashevskiy, G.O.Vinokur I.M.Borisova, L.N.Sizran, D.A.Suxovey, o'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, A.Nurmonov va o'zbek adabiyotshunosligida D.Kuronov, Q.Yulchiyev, M.Xolova, S.Kuronov, G.M.Oripova va boshqalarning tadqiqotlarida bu ikki tushunchani yaxlit holda o'rganish kerakligi ta'kidlangan.

Tilshunos olim A.Nurmonov "O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis)" [10, 5] kitobida an'anaviy tilshunoslikda lisoniy birliklarni faqat shakliy tomondan o'rganishga e'tibor qaratilganligini, tilni bunday o'rganish bir yoqlama bo'lib, shaklni ma'nodan uzib bo'lmasligi, shuning uchun keyingi tadqiqotlarda lisoniy birliklarning ma'no tomoniga e'tibor kuchayganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, matn mohiyatini anglashda ham shakl va mazmun muvofiqligini hisobga olish lozim. Chunki har bir matnda hayotiy voqelik aks etib, "voqelikda mavjud narsalarning bari o'zining tashqi ko'rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyat (mazmun)ga ega. Shu bois ham "shakl" va "mazmun" kategoriyalari umumfalsafiy xarakterga ega bo'lib, ular voqelikni (narsani) idrok qilishda muhim ahamiyatga molik ilmiy abstraksiyalar sanaladi... Boshqa har qanday narsa singari, badiiy asar ham shakl va mazmunning yaxlit birligidir." [17, 79-80.]. Shuning uchun poetik matn tahlilida bu ikki kategoriyani bir-biridan ayirgan holda tahlil qilish mutlaqo mumkin emas. Masalan, "XIX asr oxiri va XX boshlarida bir qator adabiy oqimlar – futurizm, imajinizm, dadaizm, avangardizm kabi oqimlar badiiyatni faqat shaklda ko'rib, turli yangi shakllar ixtiro qilganlar. Ularning ixtirolari "shakl – shakl uchun" shiori ostida kechib, mazmundan ko'pincha ayro tushgani uchun samarasiz yakun topgan. Shunday bo'lsa-da, ularning shaklni mutloqlashtirish borasidagi izlanishlari "badiiy asar shakliga xos ko'p jihatlarni: badiiy til, uslub, she'r tuzilishi, she'r kompozitsiyasi, ritm, metr, syujet qurilishi, badiiy asar kompozitsiyasi" [17, 79-85] kabi masalalarni oydinlashtirgan. D.Kuronov badiiy asarda shakl va mazmun komponentlarini tasnif qilishda hali hanuz bir xillik yo'qligini ta'kidlab, quyidagicha tasnif qiladi: "problema, tema, tendensiya, g'oya – mazmun unsurlari; til, obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, kompozitsiya, ritm – shakl unsurlari" [17, 79-85]. Sanab o'tilgan bu unsurlarni biridan ikkinchisini ayrgan holda badiiy matn yaratish mumkin emas. Ko'rinadiki, shakl va mazmun hamisha bir-birini taqozo etadi. Har qanday poetik matn o'ziga xos shaklga ega bo'lib, ma'lum bir mazmunni ifodalaydi. Mazmun – bu mohiyat bo'lsa, shakl mohiyatni namoyon etuvchi ko'rinishdir. Yu.M.Lotman o'z izlanishlarida matn mohiyatini ochishda uning tarkibiy tabiatining belgisi, ya'ni grafika ham alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun har qanday matnda grafik shakl ijodkor tomonidan maqsadli

tanlanadi. Muallif tomonidan tanlangan shakl barcha estetik funksiyalarni bajarish uchun xizmat qiladi.

She'riy matnlarda muallif tomonidan tanlangan grafik shakllarni A.G.Stepanov muallifning "arxitektura tushunchasi" [11], deb ta'riflaydi. Chunki har bir poetik matn muallifning individual maqsadli loyihasi asosida qurilib, unda muallifning kognitiv-semantik qarashlari mujassam bo'ladi. She'riy matnlarda mualliflar turli xil grafik vositalarga murojaat qilish huquqiga ega bo'lib, ular tanlangan grafik shakllar uzatilayotgan axborotning kitobxon tomonidan qabul qilinishini osonlashtiradi.

O'zbek tilshunosligida olib borilgan ishlarga nazar solarsak ekanmiz, she'riy matn nazariyasi, tuzilishi, semantik, sintaktik va stilistik jihatlari qator tadqiqot ishlarining obyektiga aylangan. Ayrim tadqiqotchilar ishlarida shakl va mazmun uyg'unligi va uning asar estetik ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni haqida ilmiy nazariy fikrlar berilganligini ko'ramiz: "Zamonaviy she'riyatda she'r matnining vizual ko'rinishi ham muhim ifoda vositasiga aylanib bormoqda. O'zbek she'riyatida grafik poeziya namunalari ko'payib, umuman, she'r matni grafikaga daxldor ekani tobora keng e'tirof etilmoqda. She'r mutoalasida, uning anglanishida matnning grafik qurilishi muhim vazifa bajarishidan kelib chiqib, lirik asar matnining grafik shakllantirilishiga muhim poetik vosita sifatida e'tibor qaratilmoqda" [18, 22].

### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Poetik matnlarning vizual-grafik ko'rinishi "lirik mushohadaning subyektdan obyektga ko'chishidir" [18,13]. Uning zaminida muallifning kognitiv bilimlari, hayotiy mulohazalari, olam haqidagi mantiqiy-falsafiy qarashlari, ya'ni shoirning konseptual olami namoyon bo'ladi. Muallifning "musavvir kabi o'z his-tuyg'ularini muayyan tasviriy kompozitsiyada ifoda etishi" [18, 15], tilning grafik vositalaridan geometrik shakllar yaratishi, borliqdagi jonli va jonsiz predmetlar obrazining rangin tasvirini hamda badiiy bo'yoqqa ega bo'lgan turlicha konseptlarni ifodalashi poetik matnlarda o'ziga xos shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlaydi. Albatta, ijodkorning bunday pragmapoetik tafakkuri va grafik vositalardan foydalanishdagi mahorati kognitiv poetika yo'nalishining shakllanishi uchun xizmat qiladi.

She'riy matnlarni turli xil grafik ko'rinishlarda ifodalash juda qadimdan mavjud bo'lgan. Tilshunos olimi Lidiya Nevskaya Sizranning "Графические стихи визуальная поэзия" maqolasida grafik she'rlarning yaratilishiga oid ma'lumotlar berilgan bo'lib, uning fikricha, "bunday she'rlar uzoq vaqtdan, miloddan avvalgi III asrdan ma'lum. Hatto qadimgi yunon shoiri Simmiy Rodosskiy ham tuxum, bolta va qanotlar shaklidagi she'rlarni yozish bilan ma'lum bir mazmunni ifodalagan. XVI asrda fransuz yozuvchisi Rabelais shishaga oda yaratib, uni shisha idish ko'rinishida tasvirlagan. Fransuz shoiri Giyom Apolliner 1918-yilda grafik she'rlardan iborat "Kalligrammalar" nomli to'plamini yaratgan. XVII-XIX asrlarda figurali grafik she'rlar, xoj, yulduz, archa, turli xil geometrik figuralar (romb, piramida, uchburchak va boshqalar) ko'rinishidagi vizual she'rlar yozish an'anaga aylangan. Rus shoiri Derjavinning "Пирамида", V.Bryusovning "Пирамида - треугольник", Tatyana Mankovaning "Шеърият" kitobidagi bir qator she'rlar va juda ko'p shoirlarning she'rlari grafik shaklda yozilgan" [14] bo'lib, ular tilshunos olimlar e'tiborini tortgan. Shu bois jahon va rus tilshunosligida poetik grafikaning semantik funksiyasi, vizual grafikaning evolyutsiyasi, grafik she'rlarda vazn, ritm, intonatsiya va qofiyaning o'rni bir necha tadqiqotlar obyektiga aylangan. Bu ishlarda vizual-grafik usulda yozilgan she'rlar olimlar tomonidan turli xil terminlar, ya'ni "poetik ifodaning topografik shakli" (G.O.Vinokur ), "she'ning grafik qiyofasi" (Yu.M.Lotman ), vizual-grafik she'rlar (Kazarin Yu.V. ), "grafik shakl" (B.V.Tomashevskiy ), "figurali shakl", "vizual shakl" (A.G.Stepanov ), "grafik she'rlar" (L.N.Sizran ), deb yuritilgan. Yuqoridagi poetik matn bilan bog'liq terminlar asosida vizual poetik ifodalarga nisbatan shoirning poetik tili, poetik so'z, poetik diskurs [19] , poetik nutq, pragmapoetik grafik shakl va "olamning poetik manzarasi" hamda "poetik konsept" [9] kabi tushunchalarni ishlatish mumkin bo'ladi, chunki adabiyotni tilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Vizual ifoda uslubiga oid misralarni poetik matn pragmatikasi yo'nalishida tadqiq etish muhimdir.

A.G.Stepanov o'z tadqiqotida she'riy matnning semantikasi uning vizual o'ziga xosligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Boshqa matn turlaridan farqli ravishda she'riy matndagi har bir misraning vertikal holatda tartiblanishining o'ziyoq uni grafik shakli ekanligini Gertruda Staynning quyidagi fikri bilan asoslaydi: "Matnning boshqa turlariga nisbatan she'riy matn grafik ravishda belgilanadi: bu

## TILSHUNOSLIK

she'ning ta'kidlangan urg'u bilan sahifaning boshida grafik vertikalligi bilan namoyon bo'lishida ko'rinadi" [12].

Rus olimasi Borisova Irina Mixaylovnaning "Графический облик поэзии: "лесенка", курсив, графический эквивалент текста: На материале поэзии Н.А. Некрасова, его предшественников и современников тема" [2] nomli dissertatsiyasida rus mumtoz she'riyatining grafik ko'rinishlaridan biri "zinapoya" ko'rinishidagi she'rlarning badiiy ta'siri, grafik vositalarning asar badiiy olamini shakllantirishdagi ahamiyati, grafik ekvivalentning vazn va turoq, ritm va sintaksis bilan o'zaro ta'siri A.Nekrasov she'rlari misolida yoritiladi. "Zinapoya" shaklidagi she'riy misralardagi so'zlar, so'z birikmalari, iboralar alohida-alohida satrlarda berilib, ta'kidni kuchaytirishi bilan xarakterlanadi. "Zinapoya" usulidagi she'rlarning asosiy mohiyati ko'proq ko'tarinki ruhni ta'minlashga qaratilib, murojaat, da'vat etish nutqiy aktuga asoslangan bo'ladi va appelyativ funktsiya bajaradi. Masalan:

Tengdoshim,  
Asrdosh birodar!  
Kel, bir on jim o'yga cho'maylik.  
Bu yerda  
Yotibdi  
fidolar.  
Kel, uni  
Gullarga  
ko'maylik. (E. Vohidov. Nido)

Vizual-grafik poetik matnlar xabarning manbasi sanaladi [1,83-91]. Shakliy ifodalar orqali tinglovchiga ma'lum bir xabar yetkaziladi:

Farzand, onang qariyapti.  
Hushyor bo'lg'in, ogoh bo'l,  
Sal shabboda qaddin egar,  
Tirgak bo'lg'in panoh bo'!  
O'ylamaki, "hayot mangu,  
Onam ming yil yashaydi!"  
Bu dunyoda har ne zotdan,  
Ona mo'rtga o'xshaydi!  
Tomirlari bo'rtgan qo'llar,  
Qo'sh uzuklar yarashmas,  
Ko'kdagi oy aslo, aslo,

Endi chiroy talashmas,  
Bir mehringdan yashnab ketar,  
Chaman, bog'lar hech gapmas.  
Bir qahringdan qulab tushar,  
Tog'-u toshlar hech gapmas.  
Senga ertak ayta-ayta,  
Ertaklarga aylanar.  
Bir kun u ham onasiday,  
Maysalarga boylanar.  
Unda sening alamlaring,  
Yegan oshing, noningdir.  
Onang tirik yursa, magar,  
Shavkat-shon, iymoningdir.  
Farzand, onang qariyapti,  
Ogoh bo'lg'in, hushyor tur.  
Yuzga kirar, balki ikki yuz,  
Ayriliqqa tayyor turl  
(*Farida Afro'z. O'sha kun bugundir*)

Ushbu she'riy matnda muallif vizual-grafik ko'rinish orqali onaizorning mashaqqatli hayot yo'lini chizadi. She'rni o'qigan kitobxon ko'z oldida o'z onasining siymosi gavdalanadi. Muallif bunday kommunikativ taktika asosida kitobxonga ekspozitiv akt (matn vositasida berilgan xabar [16, 156]) ni namoyon etgan. Muallif ushbu poetik matn orqali farzandni, ya'ni adresantni ogohlikka chaqirgan. Bu esa pragmapoetkada undash akti deyiladi. Shuningdek, muallif onaning g'animatligini, unga e'tibor berish kerakligini oddiy nasrda ham ifodalashi mumkin edi, ammo shunday grafik-vizual poetik ifodani yaratganki, natijada bu ifoda poetik ekspressiv-emotsionallikni yuqori darajaga ko'targan.

She'riy matn grafikasi tadqiqi bilan shug'ullangan rus tilshunosi Suxovey Darya Alekseyevna o'zining "Графика современной русской поэзии" [13] nomli dissertatsiyasida zamonaviy shoir til qonuniyatlaridan faqat o'zining she'riy matn yaratish uchun muhim bo'lgan an'analar va yo'nalishlarni tanlashini ta'kidlab, Dudakov-Kashuroning: "Matn belgilarning ketma-ket ifodasi emas, balki fazoviy grafik yechimdir", degan fikrini keltirish bilan she'riy matnning grafik shakli matn mazmunini yoritishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi. U ma'lumotni grafik usulda taqdim etish pragmatik potensialni belgilovchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

Olima o'z tadqiqot ishida rus she'riyatidagi vizuallik, she'riy matn tuzilishi, matnning tarkibiy-semantik asosi sifatida raqamlar va matematik belgilar, she'riy matndagi bosh harflar va to'liq bo'lmagan so'zlar ifodasining mazmuniy-semantik xususiyatlarini ochib beradi. 1980-2000-yillarda yozilgan zamonaviy rus shoirlari she'rlarining grafik tarkibi, matn tuzish tamoyillari, alfavit bilan bog'liq tendensiyalar, tinish belgilarining ishlatilishidagi dinamik hodisalar, bosh harflar hamda raqamlar, formulalarning matn mazmunini ochishdagi o'rmini ilmiy jihatdan asoslab beradi. D.A.Suxovey dunyo she'riyatida vizual she'rlar ijod mahsuli sifatida yuzaga kelgan vaqtdan beri an'anaviy tarzda yozilib kelinayotgan bo'lsa-da, uning ma'noga bog'liq tomonlari hali olimlar tomonidan yetarli tadqiq etilmaganligini alohida ta'kidlaydi. Haqiqatan, bu mavzu doirasida qilingan ishlar barmoq bilan sanarli darajada. Bugungi kun o'zbek tilshunosligida ham bu mavzu doirasidagi muammolar o'z tadqiqotchisini kutmoqda.

### XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jahon va rus tilshunosligida she'riy matn tuzilishi, she'riyatdagi vizuallik, grafik shakllarning matn tarkibiy-semantikasiga ta'siri masalalari, turli xil figurali tasviriy shakllar, bosh harflar, tinish belgilarining ifodalanishi va to'liq bo'lmagan so'zlar, anagramlar, palindromlar, logograflar ifodasining mazmuniy-semantik xususiyatlari, vizual ekspressivlik usullari ilmiy asoslangan. She'riy matnda muallifning kommunikativ maqsadi muloqot jarayonining asosiy xarakteristikalaridan biri hisoblanib, bunday maqsad go'yo ataylab hosil qilingan kommunikativ intensiya sifatida she'riy matn strukturasi va mazmunida lisoniy voqelanadi. She'riy matnlarning vizual-grafik shakllari muallif tomonidan ma'lum

## TILSHUNOSLIK

bir maqsad yo'lida tilning turli darajalarini: fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, stilistik, kompozitsion jihatdan o'zgartirish hamda tinish belgilarini qo'llash asosida yuzaga chiqadi. Poetik matndagi grafik belgilarning umumiyliigi va tartibi qo'shimcha funksiyalarga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. She'riy matnning vizual-grafik ifodasi muallif va kitobxonning o'zaro kognitiv-pragmatik munosabatga kirishishini ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Атаева Е.А. Поэтический текст как источник информации // Лингвистические исследования художественного текста. –Ашхабад, 1987. –С. 83-91.
2. Борисова И.М. Графический облик поэзии: "лесенка", курсив, графический эквивалент текста: На материале поэзии Н.А. Некрасова, его предшественников и современников тема диссертации и автореферата, канд. филол. наук, по ВАК РФ 10.01.08. –Самара, 2003.
3. Винокур Г.О. Филологические исследования: Лингвистика и поэтика. –М.: Наука, 1990. – 452 с.
4. Зебо Мирзо. Ишқ (шеърлар). – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 123.
5. Казарин Ю.В. Поэтический текст как система: Монография. – Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та, 1999. –С. 80-116.
6. Лотман Ю.М. О поэтах и поэзии. Анализ поэтического текста. – Санкт-Петербург, 1996. –С. 47.
7. Лотман Ю.М. Графический образ поэзии // Лотман Ю.М. О поэтах и поэзии. – СПб.: Искусство-СПБ, 2001. –Б.77-81.
8. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. –М.: «Языки русской культуры», 1996. –464с.
9. Маслова Ж.Н. Когнитивная концепция картины мира. –М.: ФЛИНТА, 2012. –420 с.
10. Нурмонов А. Махмудов Н. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б. 5.
11. Степанов А.Г. Семантика стихотворной формы (Фигурная графика, строфика, enjambement). – Дисс... канд. филол. наук. 10.01.08. –Тверь, 2004.
12. Степанов А.Г. <http://www.dslib.net/teoria-literatuy/semantika-stihotvornoj-formy.html>
13. Суховой Д.А. Графика современной русской поэзии. Диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.01, канд. филол. наук, 2008.
14. Сызрань Л.Н. Графические стихи. Визуальная поэзия. Copyright, 2014. Свидетельство о публикации №114052207977. <https://stihi.ru/2014/05/22/7977>
15. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. –М. 2001; Томашевский, Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии / Б.В. Томашевский. –Москва : Ленинград : Прибой, 1928. –231 с. –Режим доступа: по подписке. –URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=42377> (дата обращения: 11.09.2020). –Текст: электронный
16. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 156.
17. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Andijon: Hayot, 2002. –B. 117.
18. Quronov S.D. Zmonaviy o'zbek adabiyotida sintez muammosi (she'riyat va rangtasvir san'atlari misolida). Filol. fan, bo'yicha falsafa d-ri (PhD) diss... avtoref. –Farg'ona, 2018. –B. 13.
19. Чумак –Жунь И.И. Дискурсивное пространство поэтического текста: образное слова в русской лирике конца XVIII -начала XXI веков. Автореф. дис... д-ра. филол. наук. –Белгород, 2009. –38 с.